



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)

JIZZAX-2026

belgilovchi muhim poydevor hisoblanadi. Shu sababli oilada sog'lom psixologik muhitni shakllantirish bugungi kunda ham ilmiy, ham amaliy jihatdan dolzarb masala bo'lib qolmoqda [4].

Bola shaxsining shakllanishi murakkab, ko'p omilli va uzluksiz jarayon bo'lib, uning eng muhim poydevori oilaviy muhit hisoblanadi. Oila — bu nafaqat biologik bog'liqlik tizimi, balki shaxsning ilk ijtimoiy tajribalarini egallaydigan, axloqiy qadriyatlar, emotsional barqarorlik va xulq-atvor me'yorlari shakllanadigan asosiy tarbiya makonidir. Shu bois, oilaviy muhitning bola rivojlanishidagi o'rni psixologiya fanida doimo dolzarb va fundamental muammolardan biri bo'lib kelmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sog'lom oilaviy muhit — bu faqat moddiy ta'minot emas, balki eng avvalo, ota-ona va bola o'rtasidagi ishonch, hurmat, mehr-muhabbat va ochiq muloqotga asoslangan psixologik muvozanatdir. Bunday muhitda ulg'ayayotgan bola o'zini xavfsiz his qiladi, o'ziga ishonchi ortadi, tashqi olamga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiradi hamda ijtimoiy moslashuv jarayonini osonroq o'tadi.

Umuman olganda, oilaviy muhit — bu shaxs kamolotining ilk va eng muhim maktabi bo'lib, u bolaning butun hayot yo'nalishini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham har bir sog'lom jamiyatning poydevori mustahkam, ma'naviy yetuk va psixologik jihatdan barqaror oilalardan iborat bo'lishi zarur.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Vygotsky L. S. Myshlenie i rech (Thinking and Speech). Moscow: 1934.
2. Erikson E. H. Childhood and Society. New York: W. W. Norton & Company, 1950.
3. Aliqulov S.T. Umumta'lim va umumkasbiy fanlar o'rtasida fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish mexanizmlari. Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiya. Buxara, 2020 g. 501-503 s.
4. Karimova V. M. Yosh va pedagogik psixologiya. Toshkent: O'qituvchi, 2019.
5. G'oziyev E. G. Umumiy psixologiya. Toshkent: O'qituvchi, 2010.
6. Rivojlanish psixologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
7. Oila psixologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.

O'SMIR YOSHLAR O'RTASIDA SUITSIDAL HOLATLARNING OLDINI OLISHDA OILAVIY MUHITNI SOG'LOMLASHTIRISHNING AHAMIYATI

Yaxshiboyev Sardor Bo'riboy o'g'li
O'zMUJf Psixologiya magistranti
sardoryaxshiboyev72@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'smir yoshlar orasida suitsidal xulq-atvorning shakllanishiga oilaviy muhit, ayniqsa, oiladagi zo'ravonlikning ta'siri chuqur tahlil qilinadi. O'smirlarning tajovuzkorligi nafaqat individual omillar, balki oilaviy va ijtimoiy muhit ta'siri ostida rivojlanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, tajovuzkorlikni

kamaytirish uchun psixologik treninglar, muhitni optimallashtirish va ta'lim muassasalarida maxsus dasturlarni amalga oshirish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: suitsidal xulq, o'smir, oilaviy zo'ravonlik, psixologik travma, emotsional beqarorlik, ijtimoiy izolyatsiya, depressiya emotsional intellekt, konflikt, pedagogik yondashuv, jamiyat, boshqaruv, psixodiagnostika.

O'smirlik davri inson hayotidagi o'ziga xos murakkab psixo-fiziologik davr hisoblanadi. Bu davrda shaxs o'zini jamiyatda topishga, shaxsiy dunyoqarashini shakllantirish va o'zini anglashga harakat intiladi. Ammo oila ichidagi salbiy muhit, ayniqsa zo'ravonlik, nazoratning haddan ziyodligi yoki beparvolik, o'smir ruhiyatiga chuqur salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlarga ko'ra, oilada jismoniy, ruhiy yoki hissiy zo'ravonlikni boshdan kechirgan o'smirlar autoagressiv xulq-atvorga ko'proq moyillik bildiradilar [1].

Ijtimoiy psixologiyada suitsid va uning sabablari, uning oldini olish choralari hanuz muammoligicha qolmoqda. Uni atroflicha o'rganish, xususan, suitsid sabablarini tahlil qilish va uni kamaytirish hozirda zamonaviy psixologiyaaning dolzarbligi va ahamiyatli mavzularidan biri bo'lib qolmoqda. Tahlillar. O'z joniga qasd qilish yoki suitsid bir taraflama harakat bo'lib, unda oxiriga yetkazilmagan holatlar ham uchraydi. Ehtiyotsizlik oqibatida yoki o'zini bilmay, anglamay sodir qilingan holat – o'z joniga qasd qilish (suitsid) jarayoni deb sanalmaydi. Balki, baxtsiz xodisa toifasiga kiritiladi. O'z joniga qasd qilish yoki o'zini–o'zi o'ldirish holati azal–azaldan kishilik jamiyatida mavjud uchraydigan holat hisoblanadi. Bu haqda ko'plab tarixiy va etnografik ma'lumotlarda aks ettirilgan [2]. Bunga misol qiladigan bo'lsak, qadimgi yapon Samuraylari, ular uchun asir tushishdan ko'ra o'zini–o'zi o'ldirish bu sharaf hisoblangan, yoki qadimgi Misr malikasi Kleopatriya ham Rim iste'losidan keyin o'limni afzal bilgan, yoki arab bosqiniga qarshi kurashgan Muqanna v.b. Suitsid holatlarini qayd qilib boruvchi dunyodagi eng katta institut Shvesiyada joylashgan bo'lib, uning hisob-kitoblariga ko'ra Markaziy Yevropa davlatlari bu borada peshqadam ekanligini ta'kidlashmoqda. Hozirgacha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra shaxs suitsid haqidagi o'z rejalarini topishga «kalitlar» va ogohlantirishlar beradi. O'z joniga qasd qilishni o'ylaganlarning 10 tadan 8 tasi atrofdagilarga bu haqda doimo bildirishga harakat qilib borishgan. O'zini o'ldirmoqchi bo'lganlarning ko'pchiligi o'z harakatlarini avvaldan o'ylab chiqishadi. Ular ko'pincha o'zlarini o'ldirishdan oldin o'z niyatlarini atrofdagilarga bildirishadi.

Suitsidlarning asosiy qismi kuchli depressiv holatda amalga oshiriladi. Depressiv holatda bo'lgan insonlar vaziyatni boshqarish va ushlab turish maqsadida spirtli ichimliklardan yoki bo'lmasa turli narkotik moddalardan foydalanishadi. Ushbu vositalar shaxsda voqelikni buzib idrok etishga sabab bo'ladi. Umuman, suitsidal xulq shakllanishini o'rganish muammosi ko'p tarmoqli va keng ko'lamli ekanligi bilan ajralib tursada, mazkur muammo bo'yicha talaygina ilmiy tadqiqotlar olib borilganligini alohida ta'kidlash mumkin. Aytish joizki, ko'pgina tadqiqotlarda odatda tadqiqot ob'ektini xotirasini yo'qotish natijasida o'z joniga qasd qilishga uringanlar va psixonevrologik dispanserlar ro'yxatida turgan shaxslar tashkil etgan. Suitsidientlarning qolgan guruhlarida esa, ayniqsa o'z joniga qasd qilganlar, ilmiy tadqiqot nazaridan chetda qolib ketmoqda. Shu bois suitsidal xavfning shaxs omillarini aniqlash muammosini chuqur o'rganishni talab qiladi.

Amerikalik sotsiolog E. Durkheimning “O‘z joniga qasd” (1897) asarida keltirilganidek, suitsid — bu nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy hodisadir. Unga ko‘ra, inson jamiyatdan ajralgan, ijtimoiy aloqalari zaiflashgan holatda o‘z hayotiga nuqta qo‘yishga moyil bo‘ladi. Shu jihatdan, oilaviy zo‘ravonlik — o‘smirning eng yaqin ijtimoiy muhitida paydo bo‘ladigan “sokin izolyatsiya” shaklidir [2].

O‘smir oilada tez-tez janjallar, ota-onaning bir-biriga yoki bolaga nisbatan zo‘ravonligi, haqoratlar, e‘tiborsizlikni ko‘rsa, u o‘zini beqadr, ortiqcha yoki aybdor his eta boshlaydi. Psixolog A. Beckning “Kognitiv depressiya nazariyasi”ga ko‘ra, insonda depressiv fikrlarning asosida “men yaramayman”, “hech kim meni sevmaydi”, “kelajagim yo‘q” kabi salbiy e‘tiqodlar yotadi [3]. Ana shu fikrlar suitsidal kayfiyatning psixologik zaminini yaratadi.

Bundan tashqari, britaniyalik psixoanalitik J. Bowlby “Bog‘lanish nazariyasi”da ta‘kidlaganidek, bola hayotining ilk bosqichlarida ota-ona mehridan mahrum bo‘lsa yoki u bilan hissiy aloqa mustahkam bo‘lmasa, kelajakda o‘sha bola emotsional beqarorlik, xavotirlik va o‘zini qadsiz his etish holatlariga duch keladi [4]. O‘smirlik davrida bu holatlar suitsidal fikr va o‘ziga zarar yetkazuvchi xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin.

Oilaviy zo‘ravonlik faqat jismoniy emas, balki psixologik tazyiq, bepisandlik, so‘z orqali kamsitish shaklida ham namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘smirning fikrini mensimaslik, uni doimo tanqid qilish yoki boshqalar bilan solishtirish, ruhiy azobni kuchaytiradi. Bunday o‘smirlar ko‘pincha o‘z his-tuyg‘ularini ifoda eta olmaydilar, ijtimoiy aloqalardan chetlanadilar va natijada ichki bosim suitsidal urinishlarda ifodalanadi [5].

Amerikalik psixolog A. Bandura “Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi”da bolalar o‘z atrofida tilarning xatti-harakatlarini kuzatib, ulardan o‘rnak olishlarini ta‘kidlaydi. Agar bola oilada zo‘ravonlikni kuzatsa, u bunday xatti-harakatni “normal” deb qabul qiladi yoki muammolarni zo‘ravonlik yo‘li bilan hal qilishga o‘rganadi. Shu bilan birga, u o‘ziga nisbatan ham agressiyani qabul qilgan holda o‘zini jazolash orqali psixologik yengillik izlaydi — bu suitsidal xulqning ichki mexanizmi hisoblanadi [6].

Shuningdek, YUNISEF (UNICEF, 2022) hisobotiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha o‘smirlar o‘limining asosiy sabablari orasida o‘z joniga qasd qilish ikkinchi o‘rinda turadi. Hisobotda ta‘kidlanishicha, oilaviy zo‘ravonlikni kuzatgan yoki boshidan kechirgan o‘smirlarning suitsidal fikrlari boshqa tengdoshlarinikiga qaraganda 3 baravar yuqori [7]. Bu ma‘lumotlar muammoning nafaqat psixologik, balki ijtimoiy xavf darajasini ham ko‘rsatadi.

Muammoni hal etishda psixologik yordam, oila terapiyasi, maktab psixologlari faoliyatini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalarga nisbatan psixologik savodxonlikni oshirish, zo‘ravonliksiz muloqot madaniyatini shakllantirish suitsidal holatlarning oldini olishda asosiy omil bo‘la oladi. O‘smirlar uchun esa emotsional intellektni rivojlantirish, o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etish va boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur.

O‘smirlarda suitsidal xulq-atvorning shakllanishida oilaviy zo‘ravonlik yetakchi destruktiv faktor sifatida namoyon bo‘ladi. Oila — bu shaxsning ilk ijtimoiy maktabi, undagi zo‘ravonlik esa o‘smirning ruhiy dunyosida jiddiy psixologik travmalarni shakllantiradi. Chet olimlar (Durkheim, Beck, Bowlby, Bandura)ning konsepsiyalari

orqali isbotlanganki, bunday travmalar o'ziga past baho, umidsizlik va ijtimoiy ajralish hissini kuchaytiradi. Shunday ekan, oila muhitida mehr, hurmat va muloqot madaniyatini rivojlantirish — o'smirlar suitsidal xatti-harakatlarini profilaktika qilishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya asoslari. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar nashriyoti, 2019. – 284 b.
2. Durkheim É. Le Suicide: Étude de sociologie. – Paris: Félix Alcan, 1897. – 412 p.
3. Beck A.T. Cognitive Therapy and the Emotional Disorders. – New York: Penguin Books, 1976. – 356 p.
4. Bowlby J. Attachment and Loss: Vol. 1. Attachment. – New York: Basic Books, 1969. – 358 p.
5. To'xtayeva D. Yoshlar psixologiyasi va suitsidal xulq. – Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 2021. – 198 b.
6. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977. – 247 p.
7. UNICEF. State of the World's Children 2022: Children in a Digital World. – New York, 2022. – 185 p

AGRESSIVLIKNING BOLALAR PSIXOLOGIYASIDAGI O'RNI VA OLDINI OLISH USULLARI

Sattorova Mahliyo Burxanovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining

Jizzax filiali o'qituvchisi

Eshmurodova Umida Qaxramon qizi, Qurbonboyeva Ruxshona

Boboxonovna, Xaydarova Sevinch Safar qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining

Jizzax filiali talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada bolalarda agressiv xulq-atvorning kelib chiqish sabablari, uning biologik, psixologik va ijtimoiy omillari keng yoritilgan. Shuningdek, agressivlikning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, jumladan, oilaviy muhit, ta'lim jarayoni va zamonaviy axborot vositalarining roli tahlil qilinadi.

KALIT SO'ZLAR: Agressivlik, bola psixologiyasi, stress, tarbiya, ijtimoiy muhit, emotsiya, profilaktika

Hozirgi globallashuv davrida bolalarda agressiv xulq-atvorning ortib borishi jiddiy ijtimoiy-psixologik muammo sifatida qaralmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, bolalar va o'smirlar orasida agressivlik va zo'ravonlik holatlari yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa jamiyat barqarorligi va sog'lom avlod tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mashhur psixologlar — Zigmund Freud agressiyani insonning tug'ma instinkti sifatida ko'rgan bo'lsa, Albert Bandura uni ijtimoiy